

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARDA NAZARIYA VA AMALIYOT UYG'UNLIGINING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186387>

Sharofiddinov Rivojiddin Shamsiddinovich

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrası"
katta o'qituvchisi, tel: +998941372080, e-mail: sharofiddinovrivojiddin@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada jamiyat va davlat taraqqiyotida ta'limning o'rni yuksak ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat va jamiyat taraqqiyotida o'qituvchining mashaqqatli mehnatini ifodalovchi normalar belgilanganligi, shuningdek bilimni avlodni shakllanishida o'qituvchining mehnati beqiyosligi ko'rsatib o'tilgan. Ta'limda nazariya bilan amaliyotni qo'shib olib borish yoshlarga ilm-fan sirlarini mukammal o'rganish imkonini berishi, shu tufayli bugun ta'lim tizimimizga nazariya bilan amaliyot integratsiyasiga asoslangan dual ta'lim shakli kirib kelayotganligi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *institutsional mexanizm, qomus, ilmiy salohiyat, dual ta'lim, professional ta'lim, kasbiy ko'nikma, tizimlashtirish, integratsiya.*

Аннотация

В статье показана высокая роль образования в развитии общества и государства. Наша новая Конституция устанавливает нормы, отражающие усердный труд учителей в развитии государства и общества, а также несравнимую роль учителей в формировании образованного поколения. Утверждается, что сочетание теории и практики в образовании позволяет молодежи в полной мере постичь тайны науки, поэтому сегодня наша система образования внедряет дуальную форму образования, основанную на интеграции теории и практики.

Ключевые слова: *институциональный механизм, словарь, научная компетентность, дуальное образование, профессиональное образование, профессиональные навыки, систематизация, интеграция.*

Abstract

The article shows the high role of education in the development of society and the state. Our newly revised Constitution establishes norms that reflect the hard work of teachers in the development of the state and society, as well as the incomparable role of teachers in the formation of an educated generation. It is stated that combining theory and practice in education allows young people to fully learn the secrets of science, which is why today a dual form of education based on the integration of theory and practice is being introduced into our education system.

Key words: *institutional mechanism, scientific competence, dual education, professional education, professional skills, systematization, integration.*

Davlat va jamiyat taraqqiyotining eng muhim omili bu ta'limdir. Jamiyat va davlat hayotidagi ijtimoiy institutlardan biri sifatida ta'lim qadim zamonlardanoq alohida ahamiyatli hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Har qanday jamiyatda ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy institutsional mexanizm – bu, ta'lim hisoblanganligi tufayli insoniyat tarixining dastlabki bosqichlaridanoq ilm va ta'limga munosabat shakllangan bo'lib, ular faqat amaliy foyda berish bilan cheklanmasdan, jamiyatni tashkil etish, shaxsni shakllantirish va davlat boshqaruvini ta'minlash vositasi sifatida ham qaralgan. Shu tufayli bosh Qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida bevosita ta'lim bilan shug'ilanuvchi o'qituvchining mehnatiga quydagicha baho berilgan. “O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi” .

Bundan ko'rinib turibdiki, bosh Qomusimizda belgilanganidek, davlat va jamiyat taraqqiyoti o'qituvchining mashaqqatli mehnati natijasida shaklanadigan bilimli avlodning mavjudligiga bog'liq. Bilimli avlodning shakllanishi esa ta'limning rivojlanishiga, ta'limning muvazunligiga va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni izchilligiga bog'liqdir.

Bugun mamlakatimizda bilimli avlodning shakllanishi hamda yoshlar o'rtasida ilmiy salohiyatni yuksaltirish maqsadida ta'limning mazmuniga va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar izchilligiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Yuksak ilmiy salohiyatli kadrlarni shakllantirish va malakali kadrlar bilan mamlakatimiz iqtisodiyotini barcha sohalarini ta'minlash uchun esa yurtimizda olib borilayotgan ta'lim tizimida islohotlarda nazariya va amaliyotning uyg'unlashtirish zarurati paydo bo'ladi.

Ta'lim tizimida nazariya bilan amaliyotni qo'shib olib borish yoshlarga ilm-fan sirlarini mukammal o'rganish imkonini beradi.

2020-yil 24-sentyabrdan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi qonunining 15-moddasida ta'lim tizimida nazariya bilan amaliyot mutanosibligini belgilovchi dual ta'lim shakli ko'rsatib o'tilgan. Qonunning 17 moddasida esa dual ta'limga quydagicha ta'rif berilgan. “Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi” .

Shuningdek Vazirlar Mahkamasi ham 2021-yil 29-martdagi “Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida”gi 163-son qarori bilan professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

Aytish kerakki, an'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi-talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida asosiy e'tibor nazariyaga qaratilib, amaliyotga kam vaqt ajratilar edi. Bu esa tabiiyki, amaliy kadrlar muammosini tug'dirardi.

Shu bois, dunyo davlatlarining ta'lim tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxonalar, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli milliy ta'lim tizimiga kiritildi.

Amaliyotdan ma'lumki, dual ta'lim – o'quvchi-talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkonini beradi. Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy, 3-4 kun korxonalar va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi.

Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi-talaba korxonalar va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxonalar tomonidan ustoz birlashtiriladi va oylik maoshi to'lanadi. Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar iqtisodiyotida juda katta o'ringa ega.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Bugun dual ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha xorij tajribasini o'rgangan holda, qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha ham tegishli ishlar olib borilmoqda. Yana bir savol tug'iladi: ushbu tizimni joriy etishdan ko'zlangan maqsad nima edi? Maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat. Aytib o'tganimdek, ushbu tizimda yoshlar ta'lim olish bilan birga haqiqiy ish joyida o'z kasbiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Endi shunchaki o'qish bilan emas, haqiqiy ish jarayonida toblanishyapti. Bu esa yoshlarning o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyati va ishiga ishtiyoqini ikki karraga oshiradi, albatta.

Ta'lim tizimida o'qitishni ilmiylik darajasini oshirish, ilmiy dunyokarashni shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish masalalari, nazariyas va amaliyot mazmuni uygunligisiz o'z echimini topmaydi. Mazmunan uyg'unlashgan o'qitish samaradorligini oshirish uchun yana bir muhim talab bo'lib – bu, talab o'qitish profilini hisobga olgan holda o'qitish mazmunining qat'iy kasbiy yo'naltirilishini talab etadigan tizimlilik didaktik printsiptidan kelib chikadi.

Ta'lim negizida nazariya va amaliyot mazmuni uygunligi ta'minlanishi: o'quv mashguloti sifat va samaradorligini oshiradi;

bilimlar mustahkam va yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlaydi;

o'quv fanlari integratsiyasini taminlaydi;

bilimlar ketma-ketligini ta'minlab, ularni tizimlashtiradi;

bilim kunikma va malakalarni umumlashtiradi;

bilimni majmuiy kullash malakalarini shakllantiradi va kompetentsiyalarini rivojlantiradi;

yangi, uzaro boglik bilimlarni izlash, layokatini rivojlantiradi;

bilimdan foydalanish va amalda kullash layokatini rivojlantiradi;

tizimli fikirlashni shakllantiradi va rivojlantiradi;

mustakil, ilmiy va professional fikirlashni shakllantiradi;

tugri texnik echim topish va karar kabul kilishga o'rgatadi;

yaxlit ilmiy dunyokarashn shakllantiradi degan muhim xulosalarga kelishga asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent. Adolat. 2023
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 30.12.2025 y., 03G'25G'1109G'1241-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori
4. Shodmonova M. Dual ta'limni amaliyotda qo'llash. Science and innovation. International scientific journal. 2022 № 3, – B. 356-358.
5. Turamuratov U. Dual ta'lim tizimida kadrlar tayorlashning jahon mamlakatlari tajribasi. Ijodkor o'qituvchi. 3.30 (2023), – B.19-26.
6. Рашидов Х.Ф. Особенности развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане. – Т.: Фан, 2004. - 288 с.